



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 6-son

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR
TARIXI

- 5 HAYITOV SHERZOD
RAXMATULLAYEVICH**
Huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari:
nazariy-huquqiy tahlil

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHIM O'G'LI**
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi
va uning huquqiy tabiati
- 29 ILXOMBEKOV JASURBEK ILXOMBEK O'G'LI**
Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini
huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga
oshirishda vujudga keladigan muammolar
- 38 КУАТБЕК ГУЛНАР КУАТБЕКОВНА**
Правовые вопросы ведения интернет-
ресурсов представительных органов
местной власти в Узбекистане и Казахстане
- 52 AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**
Konstitutsionalizmning paydo bo'lishi va uning
rivojlanish asoslari

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI
VA MEDIATSIYA

- 60 XAKBERDIYEV ABDUMURAD
ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi
va huquqiy ahamiyati
- 69 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**
Функции нотариата в современном
правовом государстве

- 77 JALILOVA SARDORA ABDUROZIQ QIZI**
Milliy qonun hujjatlarida mediatsiya institutining umumiy tavsifi hamda ushbu soha doirasida aniqlangan muammolar

**12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ**

- 85 MAHBUBA XAMIDOVA ALIJANOVNA**
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechimi kutilayotgan chora-tadbirlar

**12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI**

- 93 MAXMADIYAROVA XUMORA
O'KTAMOVNA**
Sud muhokamasida taraflarning protsessual imkoniyatlari tengligini ta'minlash tortishuv prinsipining muhim sharti sifatida

**12.00.12 – KORRUPSIYA
MUAMMOLARI**

- 100 NOROV ILKHOM IBROXIMOVICH**
Exploring dimensions of anti-corruption agencies (in the example of Central Asia)

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 112 МАТЕНОВ РАШИД БЕКИМБЕТОВИЧ**
О роли новых педагогических технологий в преподавании языковых дисциплин в юридическом вузе

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./AQH09178>
UDC: 34(042)(575.1)

HUQUQIY EKSPERIMENTNI O'TKAZISH BOSQICHLARI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

Hayitov Sherzod Raxmatullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi kafedrası
dotsenti v.b., PhD
ORCID: 0000-0003-3804-7210
e-mail: xayitov085@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqiy eksperiment tushunchasi, uning turlari hamda tasnifi, shuningdek, huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari milliy va xorij tajribasi asosida tahlil qilingan. Jumladan, huquqiy eksperimentni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni uch bosqichda amalga oshirish taklif etilgan bo'lib, eksperiment o'tkazishga mas'ul bo'lgan subyektlar doirasi ham milliy qonunchilik asosida yoritilgan. Huquqiy eksperiment o'tkazilishi davlat siyosatining, islohotlarining tegishli sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, undan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar, huquqiy eksperiment ta'rifidan uning samaradorligi va natijadorligini baholashda muhim bo'lgan asosiy xususiyatlari ajratib ko'rsatildi. Huquqiy eksperimentning har bir bosqichi mustaqil vazifalar va harakatlar natijalarini aks ettiruvchi hamda mustahkamlovchi muayyan harakatlar va protsessual hujjatlar bilan tavsiflanishi, uning ahamiyati hamda muhimligi asoslantirildi. Maqolada huquqiy eksperiment yuzasidan xulosa va takliflar ilgari surilgan. Huquqiy eksperimentning o'ziga xos xususiyati uning maxsus ishlab chiqilgan maqsadga qaratilgani bo'lib, u yoki bu huquqiy gipotezani sun'iy ravishda yaratilgan muhitda tekshirish hamda eksperiment subyektlarining ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishdagi faol rolini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: eksperiment, huquqiy eksperiment, norma ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun loyihasi, huquqiy eksperiment subyektlari, mas'ul subyektlar, huquqiy eksperiment bosqichlari, tartibga solish ta'sirini baholash.

ЭТАПЫ ПРОВЕДЕНИЯ ПРАВОВОГО ЭКСПЕРИМЕНТА: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Хайитов Шерзод Рахматуллаевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и. о. доцента кафедры «Теория государства и права»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье на основе национального и зарубежного опыта анализируются понятие правового эксперимента, его виды и классификация, а также этапы проведения правового эксперимента. В частности, предлагается осуществлять подготовку и проведение правового эксперимента в три этапа, при этом круг субъектов, ответственных за проведение правового эксперимента, освещается в рамках национального законодательства. Было отмечено, что проведение правового эксперимента положительно влияет на соответствующую сферу государственной политики, реформы, однако выявлены некоторые проблемы, препятствующие использованию правового эксперимента. Из определения правового эксперимента выделены основные характеристики, важные для оценки его эффективности.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./OWRD9593>
UDK: 349.6 (045)(575.1)

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA YECHIMI KUTILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

Xamidova Mahbuba Alijanovna,
TDYU qoshidagi akademik litseyning
Huquqiy fanlar kafedrası mudiri,
dotsent, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0009-0003-8959-0333
e-mail: ar9306841@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi yechimlar uchun kelajakda kutilayotgan chora-tadbirlar va voqealar muhokama qilinadi. Bu dolzarb ekologik muammolarni hal qilish uchun faol yondashuvlar va hamkorlik zarurligiga urg'u beradi. Maqolada barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, bioxilma-xillikni saqlash, chiqindilarni boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar va konferensiyalar kabi asosiy e'tibor yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, atrof-muhit muammolarining kelajakdagi yechimlarini shakllantirishda texnologiya, ta'lim va siyosat islohotlarining roli tahlil qilinadi. Ma'lumki, ayni paytda mamlakatimizda qulay yashash sharoitlarini yaratish barobarida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlash borasida ichimlik suvi ta'minoti hamda oqova suv tizimlarini yaxshilash bo'yicha dasturiy vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda asosan qishloq joylarda ichimlik suvi va ta'minoti, uning sifati yaxshilanishi, insoniyat hayoti uchun eng muhim sanalgan atmosfera havosini muhofaza qilish, uning sifat ko'rsatkichlarini ekologik normalarga muvofiqlashtirishni ta'minlash bosh vazifadir. Yer resurslari mamlakatimiz aholisining turmush farovonligi, respublikamizning iqtisodiy salohiyati uchun moddiy ne'mat bo'lib, undan har qanday sharoitda oqilona, unumli foydalanishni tashkil etish, suv resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish, jamiyatimizda suv iste'moli madaniyatini shakllantirish ham eng ustuvor vazifalarimizdan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: chora-tadbirlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, bioxilma-xillikni saqlash, chiqindilarni boshqarish, xalqaro shartnomalar.

ОЖИДАЮЩИЕ РЕШЕНИЯ МЕРЫ В ОБЛАСТИ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Хамидова Махбуба Алижановна,
кандидат юридических наук, доцент,
заведующая кафедрой юридических наук
академического лица при Ташкентском государственном
юридическом университете

Аннотация. В этой статье обсуждается разработка будущих мер и решений в области экологии. Это подчеркивает необходимость активных подходов и сотрудничества для решения текущих экологических проблем. В статье уделено внимание основным направлениям по охране окружающей среды, таким как устойчивое развитие, переход на возобновляемые источники энергии, сохранение биоразнообразия, управление отходами, международные соглашения и конференции. В ней также анализируется роль технологий, образования и политических реформ в формировании будущих решений экологических проблем. Известно, что в настоящее время для создания комфортных условий жизни, общественного благосостояния, здоровья

naseleniya nashay strany vazhna realizatsiya programmykh zadach po sovershenstvovaniyu sistem pit'evogo vodosnabzheniya i водоотведения, рационального использования природных ресурсов с точки зрения охраны окружающей среды. В связи с этим основной задачей является улучшение снабжения питьевой водой и её качества в сельской местности, охрана атмосферного воздуха, который считается наиболее важным для жизни человека, и обеспечение соответствия его качественных показателей экологическим нормам. Земельные и водные ресурсы являются материальным благом для благосостояния населения нашей страны, экономического потенциала нашей республики, поэтому одной из наших важнейших задач является организация их рационального, продуктивного и экономного использования в любых условиях, формирования культуры потребления воды в нашем обществе.

Ключевые слова: меры, охрана окружающей среды, устойчивое развитие, возобновляемые источники энергии, сохранение биоразнообразия, управление отходами, международные соглашения.

EXPECTED MEASURES IN THE FIELD OF ENVIRONMENTAL PROTECTION

Khamidova Makhbuba Alijanovna

Candidate of Legal Sciences, Associate professor
Head of the Department of Legal Sciences of the
academic lyceum under
Tashkent State University of Law

Abstract. This article discusses future measures and developments for environmental solutions. This emphasizes the need for active approaches and cooperation to solve current environmental problems. The article covers the main areas of attention, such as sustainable development, transition to renewable energy sources, preservation of biodiversity, waste management, international agreements, and conferences on environmental protection. It also discusses the role of technology, education, and policy reforms in shaping solutions to environmental challenges. It is known that at present, in order to create comfortable living conditions for the population of our country, it is important to implement programmatic tasks to improve drinking water supply and wastewater systems in terms of environmental protection, rational use of natural resources, and public health. In this, drinking water and its supply and quality improvement in rural areas; protection of atmospheric air, which is considered the most important for human life; ensuring that its quality indicators are in accordance with ecological norms; land resources are material for the well-being of the population of our country; and the economic potential of our republic. It is one of our most important tasks to organize rational and productive use of water under any conditions, to use water resources rationally and economically, to increase the culture of water consumption in our society, and to form relationships of economic attitude towards water.

Keywords: measures, environmental protection, sustainable development, renewable energy, biodiversity conservation, waste management, international agreements.

Kirish

XXI asrga kelib, butun insoniyatni o'ylan-tirayotgan ekologiya muammolari tobora ortib bormoqda. Yildan yilga global iqlim o'zgarishlari, havo haroratining ko'tarilishi, qurg'oqchilik kabi dolzarb ekologik tahdidlar dunyo ahlini o'ylantirmoqda. Bu, o'z navbatida, turli mamlakatlar, millatlar va elatlarning birlashib, muammoga hamjihatlikda yechim izlashini taqozo etmoqda.

Markaziy Osiyo va butun dunyo uchun dolzarb ahamiyatga ega Orol fojiasi, shuningdek, yer va suv resurslari muammolari, biologik xilma-xillikning qisqarishi, o'simlik va hayvonot dunyosi genofondining, atmosfera havosining yomonlashuvi, sanoat va maishiy chiqindilarning to'planishi kabi ekologik muammolar har bir hudud va mamlakatni bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishga undamoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham aholi-ning hayot farovonligini yanada yaxshilash eng asosiy maqsad hisoblanadi. Lekin XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida insoniyat taraqqiyotiga tahdid solayotgan muammolar yurtimizga ham bevosita daxldordir. Chunki tobora keskin tus olayotgan ekologik xatarlar barqaror taraqqiyotga jiddiy tahdid hisoblanadi. Shuning uchun bugun yurtimizda atrof-muhit holatini yaxshilash va ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish har doimgidan dolzarb va muhimdir. Barqaror ekologik rivojlanish maqsadlariga erishish orqali atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonlarini jadallashtirish, tabiiy atrof-muhitga ega bo'lish huquqi hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish borasida atrof-muhitni muhofaza qilishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash, atrof tabiiy muhit obyektlaridan oqilona foydalanish va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta'minlash, iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta'sirini pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, "yashil energetika, aqlli qishloq xo'jaligi tamoyillarini keng tatbiq etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, sohada energiya va resurs tejovchi texnologiyalarni keng tatbiq etish va bu orqali asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini o'rtacha 30-40 foizga oshirishni ta'minlash lozim [1].

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish borasida ekologiya sohasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish, jumladan, "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunchilikni takomillashtirish va "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlari muhofazasini kuchaytirish borasida qator ishlarni amalga oshirish o'z yechimini kutmoqda [2].

Material va metodlar

Maqolada ilmiy tadqiq etishning qiyosiy-huquqiy tahlil, xalqaro hujjatlar tahlili, shuningdek, umumilmiy metodlar – kuzatish, umumlashtirish, induksiya, deduksiya hamda analiz-sintez metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida: birinchidan, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, bioxilma-xillikni saqlash, chiqindilarni boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar va konvensiyalar tahlil qilindi. Ikkinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mamlakatimizda shu paytgacha ko'rilgan chora-tadbirlar va amaldagi qonunchilik hujjatlari o'rganildi.

Tadqiqot natijalari

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida Ozon qatlami- ni himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasi (18.05.1993); Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Monreal protokoli (18.05.1993); Transchegaraviy suv oqimlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha BMTning YTK konvensiyasi; Tabiiy muhitga ta'sir etuvchi harbiy yoki boshqa dushmanona maqsadlardagi vositalardan foydalanishning taqiqlanishiga oid konvensiya; Iqlim o'zgarishi bo'yicha Doiraviy konvensiya (20.06.1993); Kyoto protokoli (1999); Jiddiy qurg'oqchilik va yoki cho'llanishga qarshi kurashish konvensiyasi (1995); Xavfli chiqindilarning transchegaraviy harakatlari nazorat qilish va ularni yo'q qilish bo'yicha Bazel konvensiyasi (1993); Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya (1995); Yo'qolib borish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va floraning xalqaro savdosi bo'yicha konvensiya (1997); Ko'chmanchi yovvoyi hayvonot turlarini saqlash konvensiyasi (1998); Suv botqoq hududlari bo'yicha, asosan, qushlarning yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga molik Ramsar konvensiyasi (2001) va Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Parij shartnomasi (2018) hamda boshqa qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi [3].

Shuningdek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi [4]. Davlat dasturining bajarilishi doirasida Orolbo'yi mintaqasini, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham bir qator tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan edi.

Jumladan, dasturning 201-bandida belgilangan "Aholiga kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada yaxshilash" tadbirida Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi ko'p kvartirali uylarda energiya tejankor va energiya yo'qotishlarini kamaytirishga qaratilgan sanatsiya dasturini tajriba tariqasida sinash maqsadida Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi hamda Germaniya iqtisodiyot va energetika Federal vazirligining Energetika agentligi o'rtasida pilot loyihani amalga oshirish to'g'risida kelishuvga erishildi. Mazkur loyihaning dastlabki qiymati 2,4 mlrd so'mga baholangan. Hozirda loyiha-qidiruv tashkiloti bilan shartnoma tuzilgan va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun konsalting uchrashuv amalga oshirildi.

Shuningdek, dasturning 250-bandidagi "Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojialar ta'sirini yumshatishga qaratilgan amaliy harakatlarni qat'iy davom ettirish" tadbiri borasida Nukus shahri atrofida 10 km masofada "yashil belbog'" yaratildi. Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trast jamg'armasi mablag'lari doirasida Taxtakopir tumanining 5 ta fuqarolar yig'inida 3,5 ming aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, Nukus shahri, Beruniy va Qo'ng'iro't tumanlari perinatal markazlari 42 turdagi zamonaviy asbob-uskunalar bilan modernizatsiya qilindi, natijada xizmat ko'rsatish hajmi yiliga 8,5 ming kishidan 20 ming kishiga ortishi ta'minlandi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida 280,5 gek-

tar yerda "Sudoche-Akpetki" davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil etildi [5].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabr-dagi "2020–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4889-sonli hamda 2021-yil 29-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida"gi PQ-5202-sonli qarorlari, shuningdek, 2021-yil 23-noyabr-dagi "Orolbo'yi mintaqasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [6].

BMT Bosh Assambleyasining 2020-yil 5-iyun kuni Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni munosabati bilan qabul qilingan bayonotiga ko'ra, ekologik xavfsizlik sohasida davlat boshqaruvini tubdan yaxshilash maqsadida va respublikada atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik sharoitni yaxshilash, chiqindilarning atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish va aholi salomatligi, turmush tarzi sifati va darajasini oshirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171 sonli qarori bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyati yo'nalishlari belgilab berildi [7].

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, qulay ekologik vaziyatni barqaror ta'minlash, hududiy birliklarning samaradorligini oshirish, shuningdek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi maqsadlariga muvofiqlashtirish hamda ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlash maqsadida bir qator

tashkilotlar faoliyat yuritib kelmoqda. Ular: O'zbekiston Respublikasi Biologik xilma-xillik va qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi, yuridik shaxsni tashkil qilmasdan chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, yo'qotish, qayta ishlash, ko'mib tashlash va yo'q qilish nazorati inspeksiyasi bazasida ekologiya va atrof-muhitni qilish muhofaza qilish nazorati inspeksiyasi, Respublika ixtisoslashtirilgan sanitariya tozalash korxonalari asotsiatsiyasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi, Billing tizimi asosida davlat unitar korxonasi shaklida ekologik axborot markazi, axborot kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va O'zbekiston ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish ilmiy-tekshirish instituti, "Eko-Energiya" ilmiy innovatsion markaz va ilmiy axborot markazi [2, 240-b.].

2019-yil 14-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Kartaxena konvensiyasining bioxavfsizlik bo'yicha protokoliga qo'shilish to'g'risidagi O'RQ-569-sonli Qonuni imzolandi va qator ustuvor vazifalar belgilandi. Jumladan, 2019–2028-yillarda O'zbekistonda Biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Uning asosiy maqsadi Biologik xilma-xillik konvensiyasi talablarini amalga oshirishdan iborat. Unga ko'ra, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanish, ekologik tizimlarni muhofaza qilishni, oziq-ovqat xavfsizligini, aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun 2030-yilgacha milliy strategik maqsadlar belgilandi.

Yuqoridagi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish orqali O'zbekiston ham mazkur xalqaro hujjatlarda belgilangan prinsiplarga asoslangan holda aholining qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, barqaror iqtisodiyot sohalari va energiya resurslariga erishish, qayta tiklanuvchi, ekologik toza energiya turlariga o'tish kabi

qator vazifalarni o'z oldiga qo'ydi. Bugun shu asosda mamlakatimiz aholisi uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlash borasida barcha choralar ko'rilmogda.

Ma'lumki, 2021-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Orolbo'yi mintaqasi "Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoniga ko'ra, qator maqsadlar belgilandi. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari deb nomlanuvchi IX bobi 49-moddasida ham "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega" [8] ekanligi belgilab qo'yildi.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi haqidagi qoidalar mustahkamlandi. Jumladan, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, xalqaro maydonda atrof-muhitga oid tashabbuslar, shu jumladan, Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surish, atrof-muhitga ta'sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalarni olish tizimini tatbiq etish maqsad qilindi.

Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, uni kuzatish, ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy ax-

borot bilan ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va uning ekologiyaga ta'siri ustidan monitoring olib borish, respublika hududida amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish va boshqalar shular jumlasidandir (79-maqсад) [9].

Shuningdek, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish borasida har yili kamida 200 million tup daraxt ekish maqsad qilingan. Endilikda "Yashil makon" umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish, maishiy chiqindilarni yig'ishni 100 foizga, ularni qayta ishlash darajasini 2026-yilga qadar 21 foizdan 50 foizga yetkazish ishlari amalga oshiriladi.

Respublika bo'yicha 51 ta yer usti tabiiy suv obyektlari (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko'llar)ning sanitariya-muhofaza zonlari va sohil bo'yi mintaqalarini belgilash ishlari yakunlanadi.

Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish maqsadida ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazilishi ko'zda tutilgan.

Yuqorida tilga olingan maqsadlardan yana biri Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, 2026-yil yakuniga qadar ularning umumiy hajmini 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish ham o'rin olgan (80-maqсад). Kelgusida shahar va tuman markazlarida har 50–100 ming aholi uchun "jamoat parklari"ni tashkil etish Orolbo'yi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish kabi ezgu ishlar amalga oshiriladi [10].

Tadqiqot natijalari tahlili

Quyida atrof-muhitni muhofaza qilish borasida kelajakda ko'riladigan chora-tadbirlarni sanab o'tamiz:

1. *Barqaror rivojlanish.* Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha echimlarni ishlab chiqish uchun kelajakda kutilayotgan asosiy chora-tadbirlardan biri barqaror rivojlanishdir. Ushbu konsepsiya hozirgi va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlash uchun iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik jihatlarni muvozanatga keltirishni o'z ichiga oladi. Hukumatlar, tashkilotlar va shaxslar turli sohalarida, jumladan, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va sanoatda barqaror amaliyotlarni qo'llashlari kerak bo'ladi. Yashil texnologiyalarni ilgari surish, energiya samaradorligi va resurslarni barqaror boshqarish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim qadamdir.

2. *Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish.* Qazib olinadigan yoqilg'idan qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish kelajakdagi atrof-muhitni muhofaza qilish muammosiga yana bir muhim yechimdir. Qazib olinadigan yoqilg'ining yonishi iqlim o'zgarishini kuchaytirib, issiqxona gazlari chiqindilariga sezilarli hissa qo'shadi [11]. Hukumatlar va korxonalar quyosh, shamol va gidroenergetika kabi qayta tiklanadigan energiya texnologiyalariga sarmoya kiritmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llashni rag'batlantirish nafaqat uglerod chiqindilarini kamaytiradi, balki ish joylarini yaratadi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

3. *Biologik xilma-xillikni saqlash:* Biologik xilma-xillikni saqlash atrof-muhitni muhofaza qilish uchun asos hisoblanadi, chunki u ekotizimlarning ishlashini va muhim ekotizim xizmatlarini taqdim etishni ta'minlaydi [12]. Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni muhofaza qilish, qo'riqxonalar tashkil etish va yerdan barqaror foydalanish amaliyotini joriy etish biologik xilma-xillikni saqlashning muhim chora-tadbirlaridir. Hukumatlar, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari, mahalliy jamoalar va mahalliy xalqlar o'rtasidagi hamkorlik bioxilma-xillikni samarali saqlashga erishishning kalitidir.

4. *Chiqindilarni boshqarish:* Chiqindilarni samarali boshqarish atrof-muhit iflosla-

nishini minimallashtirish va barqarorlikni ta'minlash uchun juda muhimdir. Chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va to'g'ri yo'q qilish kabi chora-tadbirlar chiqindilarning ekotizimlar va inson salomatligiga salbiy ta'sirini yumshatishda muhim ahamiyatga ega [13]. Hukumatlar va jamoalar chiqindilarni boshqarishning kompleks tizimlarini ishlab chiqishlari, samarali qayta ishlash dasturlarini amalga oshirishlari va mas'uliyatli iste'molchilarni rag'batlantirishlari kerak.

5. *Xalqaro shartnomalar va konvensiyalar:* Xalqaro shartnomalar va konvensiyalar atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha kelajakdagi yechimlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvi, Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya va Xavfli chiqindilar to'g'risidagi Bazel konvensiyasi kabi shartnomalar global hamkorlik va harakatlarni uchun asos hisoblanadi. Ushbu kelishuvlar tajriba almashinuvini osonlashtiradi. Bu borada hamkorlik tashabbuslari va global miqyosda ekologik muammolarni hal qilish uchun umumiy strategiyalarni ishlab chiqish zarur [14].

6. *Texnologiya va innovatsiyalar:* Texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar atrof-muhitni muhofaza qilishda sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni boshqarish, toza texnologiyalar va ma'lumotlarni tahlil qilish sohasidagi ishlanmalar yanada samarali yechimlarga yordam berishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish, ekologik toza texnologiyalarni ilgari surish va raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish kelajakda atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytiradi.

7. *Ta'lim va xabardorlik:* Ta'lim va xabardorlik uzoq muddatli atrof-muhit muhofazasiga erishish uchun muhim elementlardir. Ekologik ta'limni maktab o'quv dasturlariga kiritish, jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalarini oshirish va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalash orqali jamiyatlar atrof-muhitni muhofaza qilishda keng va faol ishtirok etishni ta'minlashi

mumkin. Shaxslarning bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi asosli qarorlar qabul qilish, barqaror amaliyotlarni kundalik hayotlariga tatbiq etish imkonini beradi.

8. *Siyosat islohotlari:* Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun milliy va xalqaro miqyosdagi siyosat islohotlari hal qiluvchi ahamiyatga ega [15]. Hukumatlar o'z siyosati va qoidalarida ekologik barqarorlikka ustuvor ahamiyat berishlari, yashil sanoatni rag'batlantirishlari, emissiyalarni kamaytirish maqsadlarini belgilashlari va barqaror amaliyotlarni rag'batlantirishlari kerak. Samarali siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun hukumatlar, biznes, fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralar o'rtasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar muhim ahamiyatga ega.

Xulosalar

Ekologik muammolarni hal qilish barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, biologik xilma-xillikni saqlash, chiqindilarni boshqarish, xalqaro hamkorlik, texnologik innovatsiyalar, ta'lim va siyosat islohotlarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ushbu chora-tadbirlarni qabul qilish va tegishli tadbirlarda faol ishtirok etish orqali davlatlar va shaxslar barqaror kelajakka hissa qo'shishlari mumkin. Insoniyat atrof-muhitni hamjihatlikda himoya qilishi, biologik xilma-xillikni saqlashi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishi, hozirgi hamda kelajak avlodlar uchun yanada musaffo va barqaror dunyo yaratishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosa va takliflarni berish mumkin:

- muqobil energiya (masalan, suv, maishiy va qattiq chiqindilardan muqobil energiya olish) manbalarini kengaytirish. Bu yo'nalishdagi start-up (loyiha)larni rivojlantirish uchun xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan hamkorlikni oshirish zarur;

- barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha Markaziy Osiyo va boshqa xorijiy davlatlar bilan ekologik innovatsion yo'nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirish, ekologik

ta'lim va bilimlarni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan xalqaro forumlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

– Ekologiya sohasida qabul qilingan xalqaro konvensiya, shartnoma va boshqa ikki va ko'p tomonlama kelishuvlarning samarali

ijrosi ta'minlanishiga erishish. Ekologiya sohasida mamlakatimizda sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirish har birimizning fuqarolik burchimizga aylanishi lozim va bunga erishish uchun ekologik bilim hamda madaniyatni yuksaltirish zarur.

REFERENCES

1. O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Xudoykulovich Xamzayevning saylovoldi dasturi [Pre-election program of Abdushukur Khudoykulovich Xamzayev, candidate for the President of the Republic of Uzbekistan from the Ecological Party of Uzbekistan]. Tashkent, 2023, 23 p.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. [Development strategy of new Uzbekistan]. Completed 2nd ed]. Tashkent, Uzbekistan publ., 2022, 210 p.
3. Narzullayev O. Xalqaro ekologiya huquqi [International environmental law]. Tashkent, TSUL publ., 2009, 111 p.
4. United Nations Framework Convention. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/climate_framework_conv.shtml
5. "Sudoche-Akpetki" davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil etildi ["Sudoche-Akpetki" state reservation reserve was established]. Available at: <https://yuz.uz/uz/news/sudoche-akpetki-davlat-buyurtma-qoriqxonasi-tashkil-etildi>
6. Orol dengizi fojiasining oqibatlarini kamaytirish bo'yicha keskin choralar olib borilyapti [Drastic measures are being taken to reduce the consequences of the Aral Sea tragedy]. Available at: https://uza.uz/oz/posts/orol-dengizi-fojiasining-oqibatlarini-kamaytirish-boyicha-keskin-choralar-olib-boriyapti_332449
7. Ekologiya vazirligi Botanika bog'ining boshqa tashkilotga o'tkazilishiga e'tiroz bildirdi [The Ministry of Ecology objected to the transfer of the Botanical Garden to another organization]. Available at: <https://kun.uz/uz/news/2023/10/10/ekologiya-vazirligi-botanika-bogining-boshqa-tashkilotga-otkazilishiga-etiroz-bildirdi>
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat publ., 2023, 120 p.
9. Ekologik muammolarni hal etish – strategik vazifa [Solving environmental problems is a strategic task]. Available at: <https://parliament.gov.uz/articles/111>
10. O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlandi [The concept of environmental protection of the Republic of Uzbekistan was approved]. Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/31/atrof-muhit/>
11. Shepansky I.S. Ecological and legal problems of ensuring the energy security of Russia. PhD thesis. Moscow, 2013, p. 25.
12. Brinchuk M.M. Ensuring environmental safety as a legal category. *State and Law*, 2008, no. 9.
13. Nigmatov A., Muxamedov Sh., Kamolov B. Ekologik boshqaruv: monografiya [Ecological management: monograph]. Tashkent, Spectrum Media Group, 2015, 144 p.
14. Tillyayev T. Okhrana prirody ili ekologicheskaya bezopasnost? [Nature conservation or environmental safety?]. Available at: <http://armon.freenet.uz/rus/bulletin/4/01.html>
15. Nigmatov A. Ekologiyaning nazariy asoslari [Theoretical foundations of ecology]. Tashkent, National Society of Philosophers of Uzbekistan publ., 2013, 268 p.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 6-SON

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 7.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 131.

TDYU tipografiyasida chop etildi.